



# Vaziyat

O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

2024-yil  
19-dekabr  
№ 51 (992)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

## MUHIM TADBIRLAR



Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshev tomonidan Surxondaryo viloyatining olis hududlarida o'rganish ishlari olib borildi. Sho'rchi tumani hududidan oqib o'tadigan "Elbayon" hamda Qumqo'rg'on tumani "Elobod" MFY hududidan oqib o'tuvchi suv yo'llarini ochish va tozalash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishildi.

Ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yirik avariylarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini samarali tashkil etish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Sektor rahbarlariga hamda shu yo'nalishga mas'ul bo'lgan xodimlarga aniq ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, o'rganishlar jarayonida mahalla faollari bilan ham suhbat qilindi. Oltinsoy tumanining "Karsagan", "Shoxcha", "Tog'aymurod"

va "Chinor" mahalla fuqarolar yig'inlarida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida bajarilayotgan vazifalarga ahamiyat qaratildi. Mas'ullar, mahalla yetiligi va aholi bilan amalga oshirilgan ishlarning hozirgi ahvoli, kelgusidagi bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar muhokama qilinib, zarur rejaviy va maqsadli tadbirlar belgilab olindi. "Yashil makon" umummilliy loyiha doirasida "Navro'z" mahallasiga manzarali ko'chatlar ekildi.

Qolaversa, general-mayor A.Qo'ldoshev tumanda FV tizimida xizmat olib borayotgan yosh harbiy xizmatchilar va xizmatchilar hamda 2-sektor hududidagi yoshlar bilan uchrashdi. Tadbir davomida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni yurtimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol va bevosita ishtirokchisi, jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish mamlakatimizning ustuvor va strategik vazifalaridan biri bo'lib kelayotgani qayd etildi. Mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlariga ega bo'lgan, "halollik vaksinasi" bilan emlangan, milliy mentalitetimizga yot zararli ta'sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan samarali ishlar xususida so'z yuritildi.



## DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASI

Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik S.Zuparov hamda Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ofatlar va favqulodda vaziyatlarni boshqarish agentligi (AFAD) direktori Sadi Ergin boshchiligidagi delegatsiya o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Mazkur tadbir davomida tabiiy ofatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida, shuningdek, vazirlik qidiruv-qutqaruv bo'limini xalqaro qidiruv-qutqaruv masalalari bo'yicha xalqaro maslahat guruhi standartida tayyorlash masalasi bo'yicha o'zaro fikr almashildi.

Qayd etilganidek, hayotimizda ro'y beradigan turli ofatlarning oldini olish va ulardan keladigan zararni kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish muhim masalalardan biridir. Dunyoda ilmiy texnika

taraqqiyoti qanchalik rivojlanmasin, tabiat va inson o'rtasidagi ayrim muammolar, tabiiy ofatlar xavfi yildan-yilga ortib, jiddiy talofatlarga sabab bo'lmoqda.

Respublikamiz seysmik faol hududda joylashgan. Shu boisdan ham zilzila, sel, suv toshqinlari, tuproq va qor ko'chkilari, tog'lardan tosh tushish hodisalari bilan bog'liq ta-

biiy ofatlar yuz berish ehtimoli mavjud. Bu masalaga jiddiy e'tibor qaratish, doimo hushyor va sergak turish talab etiladi. Hududlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish, ularning oldini olish va sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tegishli tashkilot, muassasa va xizmatlari bilan hamkorlikda doimiy ravishda profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar rahbariyati tomonidan Andijon viloyatining Jalaquduq tumanida harbiy xizmatchi va xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari uchun ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

## SAYYOR QABUL

Ushbu tadbir davomida Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari polkovnik X.Alibayev tomonidan xodimlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnik ta'minot hamda xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy tayyorligi o'rganildi. Viloyat FVB tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xizmatchilar, ularning oila a'zolari, shuningdek, fuqarolarning turli yo'nalishlardagi murojaatlari tinglandi. Bayon etilgan masalalar mas'ullar ishtirokida ko'rib chiqildi. Mamlakatimizda yetuk va malakali harbiy kadrlarni tayyorlash, ularning oilalari uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangani ta'kidlandi.

Tizim xodimlarining ongu tafakkuriga Vatan va xalq manfaatlariga xizmat qilish sharafli hamda muqaddas burch ekanini anglatish, qasamyodiga sodiq



bo'lish va kasbiy burchini bajarishda qonuniylikka qat'iy rioya etish borasida muhim fikrlar bildirildi. Milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga jiddiy ahamiyat qaratish zarurligi aytiladi.

Asosiy e'tibor murojaatlarni o'z vaqtida hal etishga qaratilib, mutasaddilarga vazifalar yuklatildi hamda ijrosi nazoratga olindi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



“Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” doirasida Farg’ona viloyati FVB mas’ul xodimlari tomonidan viloyatning barcha shahar va tumanlarida tizimda xizmat olib borayotgan ishchi-xodimlar bilan uchrashuvlar olib borildi.

## KORRUPSIYAGA QARSHI

Tadbirda ishtirok etgan xodimlarga manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi qonuning mazmun-mohiyati, huquqbuzarlik va jinoyatchiliklar, jumladan, yo’l-transport hodisalari, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning tavakkalchilikka asoslangan o’yinlarni o’ynashi, ichkilikbozlik bilan bog’liq qonun buzilish holatlari, odob-axloq qoidala-

riga amal qilmaslik hamda korrupsion holatlarning odini olish, har bir xodim bu kabi salbiy illatlardan to’g’ri xulosa chiqarishi kerakligi to’g’risida so’z yurutildi va vazifalar belgilab berildi.

**Ashurali ARIPJONOV,**  
shaxsiy xavfsizlik bo’limi  
bosh inspektori,  
podpolkovnik.

## UCHRASHUV

Qashqadaryo viloyati FVBda bo’lib o’tgan “Ochiq eshiklar kuni”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish” mavzusiga bag’ishlandi.

Boshqarma va shahar-tuman favqulodda vaziyatlar bo’limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha komissiyalar tuzilib, ularning ish faoliyati boshqarma shaxsiy xavfsizlik bo’limi tomonidan nazoratga olindi.

Harbiy xizmatchilar va xizmatchilar ishtirokida shaxsiy tarkibning korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz

munosabatda bo’lishiga qaratilgan profilaktik tadbirlar o’tkazib kelinmoqda. Shaxsiy tarkib bilan korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o’tkazilmoqda.

**T.TURAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
shaxsiy xavfsizlik bo’limi  
boshlig’i, podpolkovnik.

## FAOLLIK

“Yashil belbog” barpo etish loyihasi doirasida Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi maxsus hozirlangan 109 gektar yer maydoniga ayni damda ko’chat ekish ishlari qizg’in davom etmoqda. Hozirlangan yerga 90 ming tup nihol ekilishi mo’ljallangan.

Jarayonda 3000 ga yaqin viloyat faollari, korxonatashkilot vakillari, nuroniylar, yosh-

lar, sportchilar hamda keng jamoatchilik va Ohangaron tumani FV bo’limi xodimlari ham ishtirok etmoqda.

**Z.ESHNAZAROV,**  
Ohangaron tumani FV bo’limi  
inspektori, katta leytenant.  
**D.MAXMUODOV,**  
50-YOQQ smena boshlig’i,  
kapitan.

## YASHIL MAKON

Yashnobod tumani FV bo’limi tomonidan loyiha doirasida 1513 ta manzarali va 213 ta mevali daraxt ko’chatlari ekildi.

Tumandagi “Amir Temur” mahallasida o’tkazilgan daraxt ekish aksiyasida bo’limga qarashli 19-yong’in-qutqaruv

qismi shaxsiy tarkibi ham faol ishtirok etib, yashil tabiatimiz uchun o’z hissalarini qo’shib bormoqdalar.

**M.NAJMIYEV,**  
Yashnobod tumani FV bo’limi  
boshlig’i o’rinbosari, mayor.  
**A.HAYITBOYEV,**  
katta leytenant.

## SAMARALI ISHLAR

“Yong’in xavfsizligi oyligi” doirasida Toshkent viloyati FVB va Chinoz tumani FV bo’limi tomonidan tumandagi Ixtisoslashtirilgan maktab-internati hamda 2-kasb-hunar maktabida “Fuqaro muhofazasi kuni” tadbirlari o’tkazildi.

Tadbir davomida ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong’in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi bo’yicha profilaktik tushuntirishlar berildi. Shuningdek, fav-

qulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko’rsatish va zilzila yoki yong’in sodir bo’lganda binoni xavfsiz tark etish hamda evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish bo’yicha amaliy-o’quv mashg’uloti o’tkazildi.

**Iskandar QO’ZIBOYEV,**  
Toshkent viloyati FVB bo’lim  
boshlig’i mayor.  
**Azizbek QO’SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV bo’limi  
boshlig’i o’rinbosari, mayor.

## “OCHIQ ESHIKLAR”

Namangan viloyati FVB tomonidan “Ak-silkorrupsiya oyligi” doirasida matbuot anjumani va “Ochiq eshiklar” kuni o’tkazildi.

Anjumanda OAV xodimlari, jumalist va blogerlar hamda sohaga aloqador vakillar ishtirok etdilar. Unda qish-qirovli kunlarning betalafot o’tishi uchun boshqarma tomonidan belgilangan chora-tadbirlar yuzasidan ma’lumot berildi. Shuningdek, muloqotda jamiyat kushandasi bo’lgan korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxsiy tarkib o’rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishga asosiy e’tibor qaratilgani ta’kidlandi.

Tadbir Namangan shahar FV bo’limida davom ettirilib, “Ochiq eshiklar” kuni ishtirokchi-

lari hamda 1-umumta’lim maktabi o’quvchilarida katta taassurot qoldirdi. Jarayonlarda ular yong’in-qutqaruv ekipaji xodimlarining jangovar tayyorgarligi, qutqaruv asbob-anjomlarining shayligi bilan yaqindan tanishdilar.

So’ng qatnashchilar va o’quvchilar boshqarmada tashkil etilgan muzeyga sayohat qildilar. Tarixiy eksponatlar orqali yaqin o’tmishda yong’in xavfsizligini ta’minlash, qutqaruv xizmati nechog’li shakllangani to’g’risida tasavvurga ega bo’ldilar.

**Utkirbek KALONOV,**  
Namangan viloyati FVB SHXB xodimi,  
podpolkovnik.

## KO’RIK-TANLOV

FVV Akademiyasida oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari kursantlari o’rtasida “Eng yaxshi vatanparvarlik ruhida qo’shiq” ko’rik-tanlovi o’tkazildi.

Tanlovda akademiya boshlig’i general-mayor Ravshan Haydarov, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, taniqli shoir Sharobiddin Boltaboyev, taniqli kinorejissiyor Ibrohim Rasulov, O’zbekiston Davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti kafedra dotsenti Dilmurod Boybabayev va institut katta o’qituvchisi Kamila Djalilova, O’zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi, O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan artist, bastakor iste’fodagi podpolkovnik Shuhrat Dadajonov, taniqli yozuvchi va shoirlari, bastakorlari, rejissorlari, oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari, akademiya harbiy xizmatchilari ishtirok etdilar.

Qiziqarli o’tgan tanlov, vatanparvarlik ruhida qo’shiqlar va o’zbek milliy qo’shiqlar yo’nalishlarida iqtidorli havaskor va ijodkor kursantlarning chinakam qobiliyatlarini namoyon qiluvchi tanlov bo’ldi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Tanlov natijalariga ko’ra, vatanparvarlik ruhida qo’shiqlar yo’nalishida FVV Akademiyasi kursanti Samandar Hamidov faxrli 1-o’rinni qo’lga kiritgan bo’lsa, o’zbek milliy qo’shiqlar yo’nalishida Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti Majidov Ortiqjon faxrli 1-o’rinni egaladi.

Yakunda tanlov g’oliblariga FVV Akademiyasi boshlig’ining diplom, tashakkurnoma esdalik nishoni va sovg’alari tantanali topshirildi.

**Firdavs KARIMOV,**  
FVV Akademiyasi bo’lim boshlig’i, kapitan.

## KELAJAK KUSHANDASI

Namangan viloyati FVBda “Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy mashg’ulot o’tkazildi.

Tadbirda boshqarma bo’limlari hamda videokonferensiya aloqa orqali tuman va shahar favqulodda vaziyatlar bo’limlarining harbiy xizmatchi va xizmatchilar ishtirok etdilar.

Tadbirni boshqarma boshlig’i kirish so’zi bilan ochib, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar xususida aytib o’tdi. Shuningdek, boshqarma mas’ullari

tomonidan “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan viloyat FVB tizimida o’tkazib kelinayotgan ishlar haqida ma’lumotlar berildi.

Tadbir davomida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar videoroligi namoyish etilib, xodimlarning bu borada bilimlarini oshirib borish maqsadida eslatmalar tarqatildi.

**Abdurahmon HAMIDOV,**  
Namangan viloyati FVB SHXB boshlig’i,  
podpolkovnik.

## MA’RIFIY TADBIR

FVV Akademiyasi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazida akademiya harbiy xizmatchilari va xizmatchilari hamda kursantlari ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo’lib o’tdi.

Unda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyasi Kozimjon Kamilov, Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuriddik fanlari doktori Feruza Muhiddinova, Akademiya professor-o’qituvchilari, harbiy xizmatchilari, xizmatchilari, kursantlar hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.

Tadbirni akademiya boshlig’i general-mayor Ravshan Haydarov kirish so’zi bilan ochib, Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali aholi manfaatlarini ta’minlash mexanizmlari, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim sifatini oshirish bo’yicha yangi dasturlar, IT mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish bo’yicha yaratilgan shart-sharoitlar yoshlar qalbida Vatanimiz, Konsti-

tutsiyamiz bilan faxrlanish tuyg’usini shakllantirayotgani alohida ta’kidlandi.

So’ng so’zga chiqqanlar tomonidan yangilangan Konstitutsiyada belgilangan prinsiplar, jamiyatimizning barcha sohalarini, xususan, axborot sohasini tubdan isloh qilish, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, ochiq va shaffof axborot makonini yaratish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqqanligi, shu bilan birga Konstitutsiyada avvalo, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, daxlsiz huquqlari va manfaatlari masalasiga oid normalar mustahkamligini, O’zbekistonda islohotlar samarasi o’laroq, inson qadriini ulug’lashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilayotganligi, shuningdek, bosh Qonunimizda O’zbekistonning har bir fuqarosi mamlakat bo’ylab erkin harakatlanish, turar yoki yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega ekanligi, xususida keng fikr-mulohazalar bildirildi.

**FVV Akademiyasi axborot xizmati.**



## LOYIHA AMALDA

Ayni kunlarda Yangiyahoy tumani "Yangi gulzor" mahallasi ko'chlarida hamda akademiya hududi bo'ylab, 3000 tupdan ortiq manzarali tol, 2000 tupdan ortiq "Meliya" manzarali daraxti hamda 200 tupdan ortiq gilos mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Bu ishlar FVV Akademiyasi professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilar va kursantlardan

tarkib topgan guruh tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, akademiya jamoasi "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasidagi xayrli va savobli ishlarni faollik bilan davom ettirmoqda.

FVV Akademiyasi axborot xizmati.

## BEG'ARAZ YORDAM

Buxoro viloyati FVB harbiy xizmatchilari tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" tadbirlari ko'tarinki va samarali tarzda o'tkazilmoqda.

Qish mavsumi davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish, tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan

muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, Jondor tumani Madamboy qishlog'ida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oila va nogironligi bo'lgan shaxslarning ahvolidan xabar olinib, yordam ko'rsatildi.

S.MURTAZOYEV,  
Buxoro viloyati FVB RQUDM  
OBYXTTEB inspektori, kapitan.

## TUNGI PROFILAKTIKA

Namangan viloyati FVB tomonidan viloyat hududidagi tunda insonlar qoladigan maskanlar va talabalar turar joylarida tungi tekshiruvlar o'tkazildi.

Jarayonda, Namangan davlat universitetining talabalar turar joylaridagi mas'ul o'qituvchilar va talabalarga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan qo'shimcha yo'riqnomalar berildi.

Shuningdek, viloyat Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazining "Keksalar bog'i"dagi mas'ul va navbatchi xodimlariga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish yuzasidan tushuntirilishlar berildi.

Q.SATTOROV,  
Namangan viloyati FVB axborot  
xizmati boshlig'i, kapitan.  
B. OTABAYEV,  
Namangan shahar FV bo'limi katta  
inspektori, kapitan.

## YO'RIQNOMALAR BERILDI

Qish mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida Davlatobod tumani hududida tuman hokimligi, sektor rahbarlari, tuman FV bo'limi va hamkor tashkilotlarni jalb qilgan holda aholi turar joylarida, ijtimoiy soha obyektlari va tadbirkorlik subyektlarida profilaktika ishlari olib borilmoqda.

Navbatdagi tadbir tumandagi "Xalqlar do'stligi" mahallasida olib borilib, soha xodimlari va tuman hokimi boshchiligidagi ishtirokchilarga xizmat oldi yo'riqnomasi berildi. Tadbir davomida aholi xonadonlari, ko'p qavatli turar joylar va qurilish ishari olib borilayotgan maskanlarda fuqarolarga

sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanishning oldini olish yuzasidan kerakli yo'riqnomalar berildi.

Iihom AHMADALIYEV,  
Davlatobod tumani FV bo'limi PNB  
katta inspektori, katta leytenant.

## MUTOLAA MADANIYATI

Avvallari bilimga chanqoq, kitob o'qishga moyilligi yuqori, tirishqoq yoshlar ta'rifida "kitobdan bosh ko'tarmaydi" iborasini qo'llash rusum bo'lgan. Bugun esa kitob o'qishga u qadar ishtiyoqi yo'q bolalarga nisbatan "telefonidan bosh ko'tarmaydi", jumlasini qo'llanmoqda.

Bugun ayrim insonlarga kitob o'qish foydaliligini aytasangiz, internet yoki telefonda barchasi muhayyo ekanligi, hatto kitobga hojat qolmaganligini iddao qilishadi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murodning bir gapi yodga tushadi: "Kitob yoki jurnalni internet sahifalaridan ham o'qisa bo'ladi. Ammo internetda kitobga xos hid yo'q, sahifalarini varaqlashdek huzur yo'q. Eng asosiysi, uni yostig'ing tagiga qo'yib bo'lmaydi".

Farzandlarimizning komil inson bo'lib ulg'ayishlarini istar ekanimiz, avvalo, ularni bolalikdan kitobga oshno etish, mutolaaga

odatlantirish, buning uchun rag'batlantirish choralari qo'llash kutganimizdek samarali natijalarni beradi, albatta. Tarixda neki allomalarimiz, mutafakkirlarimiz o'tgan bo'lsa, ularning muvaffaqiyat tarixida avvalo kitob, shu bilan bir qatorda, ota-ona deb atalguvchi muqaddas siymolarning farzand kelajagiga nisbatan ulkan xayrixohligi va e'tiborini ko'ramiz.

Mutolaa yetti yoshdan tortib, yetmish yoshgacha bo'lgan insonning sevimli odatiga aylanishi kerak aslida. Bu ish ma'lum maqsad manziliga yetganda, muvaffaqiyatga erishilganda yohud nafaqaga chiqqanda tark etiladigan odat bo'lmasligi kerak.

Ne'mat O'razbayev,  
FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), podpolkovnik.

## HAMKORLIKDA

Jizzax viloyati FVB, Jizzax shahar FV bo'limi hamda shahar gaz va elektr ta'minoti korxonalarini mas'ullari tomonidan shahardagi "Eski shahar buyum savdo kompleksi" MCHJda profilaktik tadbirlar tashkil etildi.

O'rganish chog'ida bozor savdo qatori oralarida maxsus yong'in o'chirish texnikalarining harakati sinovdan o'tkazildi. Umumiy ovqatlanish shoxobchalarida o'tkazilgan tadbirlarda gaz va elektr jihozlaridan xavfsizlik


talablari asosida foydalanish holatlariga alohida e'tibor qarotildi. Bozor hududida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar, bozor ma'muriyati va fuqarolarga yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari tushuntirilib, evakuatsiya yo'llarini sun'iy to'siqlar bilan to'sib qo'yimaslik, yong'in o'chirish suv manbalarining doimiy ravishda sozligini ta'minlash borasida tavsiya va yo'riqnomalar berildi.

Iftixor UMAROV,  
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati  
rahbari, kapitan.

## DARS

Samarqand viloyati FVBda boshlig'i podpolkovnik Nurali Kadirov ishtirokiida "Kitobxonlik - buyuk kelajak kafolati va poydevori" mavzusida ma'naviyat va ma'rifat darsi o'tkazildi.

Unda, bugungi kunda kitob mutolaasi bilan shug'ullanish bilan birga, uni targ'ib qilish ham muhim masalalardan biri ekanligi aytilib o'tildi. Kitobxonlikni turli yosh va soha kishilari o'rtasida targ'ib qilishda mutolaaga jalb qilinadigan kitoblarning mavzu yo'nalishlarini ham aniqlab olish muhimdir. Turli toifa kishilari sharoitidan, vaziyatidan, faoliyatidan va kasbidan kelib chiqib, kitob tanlaydilar. Tanlovning to'g'ri qilinishi natijaning samaradorligini ta'minlashiga shubha



yo'q. Zamonaviy kitobxonlikda estetik idrok va did muhim ahamiyatga ega. Estetik didga ega bo'lgan inson atrof-muhitni go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojiaiylik va kulgililik kabi mezoniy tushunchalar orqali ko'zdan kechiradi. Yuksak estetik didga ega bo'lish odamning o'zinigina emas, atrofida qilargalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iihom BOQIYEV,  
Samarqand viloyati FVB axborot  
xizmati boshlig'i, kapitan.

## TASHVIQOT

G'uzor tumani FV bo'limi, gaz va elektr ta'minoti korxonasi mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tomonidan mahallalarda keng qamrovli targ'ibot tadbirlari olib borildi.

Dastlabki profilaktik tadbirlar tuman hududida 2024-yilning o'tgan 10 oyida favqulodda vaziyat va yong'inlar soni bo'yicha qizil hududga kiritilgan "Jonbuloq" mahallasida mutasaddi tashkilotlar jalb etilgan holda "Xonadonbay" tamoyili asosida amaliy ishlar olib borildi.

Mutaxassislar uyma-uy yurib, ayrim xonadonlarda aniqlangan

kamchiliklarning joyida bartaraf etish choralari ko'rishdi va fuqarolarga turli yong'inlar hamda is gazidan zaharlanish kabi noxushliklarning oldini olishga oid muhim tavsiyalar berishdi.

Shuningdek, tegishli hamkor tashkilot vakillari bilan birgalikda turli favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida tumandagi ko'p sonli mehnat jamoasiga ega bo'lgan ta'lim muassasalari va yangidan bunyod etilayotgan qurilish obyektlarida bo'lishdi.

Sanjar NOROV,  
G'uzor tumani FV bo'limi boshlig'i,  
mayor.

## TARG'IBOT

Toshkent viloyati FVB Chirchiq shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi xodimlari, shahar ichki ishlar bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish adliya bo'limi bilan hamkorlikda davra suhbatini tashkil etildi. Unda viloyatning shahar va tumanlar tibbiyot birlashmalari hamda bozorlarda yong'in xavfsizligi bo'yicha mutasaddilar, 13-va 14-umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilari, Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarini qatnashdilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda ta'lim muassasalarida unga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari bugun muhim vazifalaridan biri ekanligi, chunki huquqiy ong va madaniyati yuksak

bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'yimasliklari haqida, u jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat ekanligi, mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazishi to'g'risida fikrlar almashdi.

Tadbir so'nggida viloyat FVB tasarrufidagi yong'in-qutqaruv otryadi qutqaruvchilari tomonidan o'z faoliyatlarini ochiqlikini ta'minlash, korrupsion hatarlarning oldini olish va bartaraf etish, sohada zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish kabi masalalarga bag'ishlangan "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri, mahorat darslari tashkil etildi.

Husniddin AGLAYEV,  
Chirchiq shahar HFXO'M katta  
o'qituvchisi.



## OGOH BO'LAYLIK

Chust tumani hokimligi, tuman FV bo'limi va daxldor tashkilotlar ishtirokida yong'in xavfsizligi bo'yicha tadbirlar o'tkazildi. Tadbirda asosiy e'tibor ko'p qavatli uylar, aholi xonadonlari, ijtimoiy soha maskanlari, tadbirkorlik subyektlari va xalq xo'jaligi maskanlarida yong'in, chaqnash va is gazidan zaharlanishning oldini olishga qaratildi.

Targ'ibot tadbirlari davomida sovuq kunlar oldidan qattiq o'tin, ko'mir va gaz bilan ishlaydigan isitish pechlarini va mo'rilarini to'g'ri xavfsiz o'rnatish bo'yicha fuqarolarga yo'riqnomalar berilib, is gazi va yong'inlarning oldini olishga qaratilgan eslatmalar tarqatildi.

**Furqat PANOHIDDINOV,**  
Chust tumani FV bo'limi bo'linma katta inspektori, leytenant.

## ANJUMAN

Buxoro NQIZ va unga tegishli barcha obyektlardasanoatxavfsizligi, mehnatmuhofazasi va xavfsizlik texnikasi xizmati xodimlari, harbiylashgan gazdan qutqaruv otryadi xodimlari hamda BNQIZ MCHJ obyektlarida yong'in xavfsizligining ta'minlashni tashkil etish bo'limi profilaktika va yong'in nazorati inspektorlari bilan hamkorlikda zavodning barcha bo'lim va sexlarida favqulodda hodisalari yong'inlar va is gazidan zaharlanishning oldini olish yuzasidan barcha sex rahbarlari hamda 20-sexning ishchi-xodimlari uchun tadbir tashkil etildi.

Jumladan, 20-sex ishchi-xodimlari uchun yong'in o'chirish mashinasi va jihozlarning ishlash prinsipi, xonadonlarda is gazidan zaharlanishning oldini olish, yuzaga kelgan yong'in paytida ko'rilishi kerak bo'lgan choralar, favqulodda vaziyatlarda, zilzila sodir bo'lganda harakatlanish qoidalari to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, sexlar o'rtasida e'lon qilingan ko'rik-tanlov shartlari bilan ham yig'ilganlar tanishtirilib, berilgan savollarga javob qaytarildi.

**J.ABDUALIMOV,**  
BNQIZ MCHJ OYOXTTEB P.va NB boshlig'i, podpolkovnik.

## MAS'ULLIK HISSI

Olib borilayotgan profilaktik tadbirlar, targ'ibot-tashviqot, tushuntirish ishlariga qaramasdan, aholi o'rtasida tabiiy va is gazlaridan zaharlanish, yong'in, gaz chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi hamda fuqarolarning yuqori darajalarda kuyishi, uy-joylarning yonish-portlash natijasida vayron bo'lishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar tez-tez qayd qilinmoqda.

Favqulodda vaziyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqorida aytib o'tilgan holatlarning sodir bo'lishiga fuqarolarning xavfsizlik qoidalari bilmasliklari va qoidalarga rioya qilmasliklari, ehtiyot choralarini ko'rmasliklari sabab bo'lmoqda.

Tahlillarga ko'ra, is gazidan zaharlanish holatlarining aksariyati fuqarolar tomonidan gaz, ko'mir, o'tin va boshqa yoqilg'i turlaridan foydalanishda xavfsizlik choralariga rioya etmaslik, qo'lbola isitish pechlarini va anjomlaridan foydalanish, isitish pechlarining dudburonlarini noto'g'ri o'rnatish va boshqa sabablarga ko'ra yuzaga kelmoqda.

Ayni jihatlar fuqarolarning bu boradagi xabardorlik darajasini muntazam oshirib borishni taqazo etmoqda.

Shundan kelib chiqib, respublikamizdagi madaniyat va istirohat bog'larining avtoturargohida tuman FV bo'limlari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari, ko'p qavatli turar-joy fondi hamda ijtimoiy obyektlarning qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha maxsus-taktik o'quv mashqlari o'tkazildi.

**S.KIM,**  
FVV Fuqaro muhofazasi instituti o'qituvchisi.

## SAMARALI O'TDI

Qashqadaryo viloyatining Qamashi va G'uzor tumanlaridagi ko'p qavatli uylarda is-tiqomat qiluvchi aholi o'rtasida yong'in vaqtida to'g'ri harakatlanish yuzasidan amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Shuningdek, soha vakillari tomonidan barcha turdagi ishlab chiqarish korxonalaridan tortib, ijtimoiy soha va yangi qurilish ob'ektlarida ishchi-xizmatchilar o'rtasida yong'inga qarshi targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Birigiga, qurilish maskanida 30 ga yaqin quruvchi va mas'ullarga qurilishda yong'in xavfsizligi qoidalari rioya etish yuzasidan zarur ma'lumotlar berilib, sohaga oid eslatma va bukletlar tarqatildi.

**Elyor ISMOILOV,**  
Qamashi tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.  
**O'tkir RIZAYEV,**  
G'uzor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

## TAYYORGARLIK

Qashqadaryo viloyati FVB, Xavfli jarayonlarni kuzatish markazi Shahrisabz tuman bo'limi, Kitob tuman hokimligi, tuman IIB hamkorligida maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

O'quv mashqi rejasiga ko'ra, ushbu avtomobil yo'lida fuqarolar va transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida, yo'l atrofidagi ko'chki va tosh qulashi xavfi mavjud bo'lgan hududlarda tegishli muhandis-texnik tadbirlar amalga oshirildi.

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, ushbu dovondan o'tuvchi avtomobil yo'lga tosh tushish xavfi bo'lgan 17 ta joyda viloyat FVB qutqaruv otryadi qutqaruvchilari tomonidan majburiy tosh tushirish ishlari amalga oshirildi.

Shu bilan birga, viloyat FVDTga kiruvchi xizmatlar hamkorligida tushirilgan tog' jinslarini qatnov qismidan olib tashlash ishlari bajarildi.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

## MAKTABDA SEMINAR

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi tomonidan Samarqand tumani 33-umumta'lim maktabida o'quvchi-yoshlar bilan uchrashuv o'tkazildi.

Unda yoshlarni vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash haqida so'z yuritilib, "Favqulodda vaziyatlarda insonlarga yordam berish muqaddas burch" mavzusida o'quv seminari tashkil etildi.

FVV tizimi faoliyatini targ'ib qilish, maktab o'qituvchi va o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarda hamda yong'in sodir bo'lgan vaqtlarda harakatlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, ularda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida hozirgi kunda FVV tizimi xodimlari tomonidan olib borilayotgan qator ijobiy ishlari yuzasidan ma'lumotlar berildi.

Tadbir davomida kelajakda shu sohada ishlashga qiziqishi bo'lgan o'quvchi-yoshlar bilan alohida tartibda suhbat o'tkazildi.

**R.MAXAMOV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi siki katta o'qituvchisi, podkolkovnik.

## YONG'INGA QARSHI

Bekobod tumani FV bo'limi tomonidan davlat yong'in nazorati xodimlari, profilaktika inspektorlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari, gaz va elektr idoralari mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlar tashkillashtirilib, oylikning o'tgan davrida 27 mingdan ortiq aholi turar joylari, 69 ta ko'p qavatli uylar va ulardagi xonadonlarning yong'inga qarshi holati ko'zdan kechirildi.



Davlat yong'in nazorati xodimlari tomonidan yong'in chiqishiga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish, nosoz gaz va elektr, maishiy asbob-uskunalaridan foydalanishning oldini olish choralari ko'rilmogda.

Aholi orasida yong'in xavfsizligi qoidalari targ'ibot qilish maqsadida mahallalarda 564 marotaba va uy-joy mulkdorlar shirkatlari 72 marotaba uchrashuvlar o'tkazilib, fuqarolar bilan yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar va tushuntirish ishlari olib borildi.

Tuman hududidagi xalq xo'jaligi korxonalari, mahalla va uy-joy mulkdorlari shirkatlarida 100 tadan ortiq yong'in xavfsizligi burchaklari tashkil etildi.

**Zoyir XURRAMOV,**  
Bekobod tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari bo'linma boshlig'i, mayor.

## MARKAZDA ZAKOVAT

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi.

Dastlab, guruhlardan qatnashadigan tinglovchilar saralab olinib, ularga intellektual o'yin shartlari bo'yicha tushunchalar berildi. Keskin va murossaz kurashlarga boy bo'lgan mazkur intellektual o'yin tinglovchilarda yaxshi taassurotlar qoldirib, o'yin yakunida g'olib bo'lgan tinglovchilarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

**Sh.BAQOYEV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish siki boshlig'i, podpolkovnik.

## KONLARDA NAZORAT

Buxoro viloyati FVB Muborak NGQCHB OBYOXTTEB va uning tasarrufidagi 20-21-22-yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan yong'indan muhofaza qilinayotgan Muborak neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli maskanlarda bir kator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Tashkil qilingan ko'ngilli yong'in o'chirish guruhlarida dastlabki tayyorgarlik mashg'ulotlari olib borilib, tayyorgarlik kursini to'liq tugatib, yaxshi natijalarga erishganlarga mustaqil ishlash uchun ma'lumotnomalar taqdim etildi. Bu borada Muborak neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi SMQ va TX jamoasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari o'z samarasini bermoqda.

**T.SHAROPOV,**  
Buxoro viloyati FVB Muborak NGQCHB OBYOXTTEB boshlig'i o'rinbosari, kapitan.



## SAHRODAGI MO'JIZA

Buxoro viloyatining Qorako'l tumani hududida joylashgan "LUOK" MChJga qarashli Qandim gazni qayta ishlash zavodi yerosti boylıklaridan gazni qayta ishlab, mamlakatimiz istiqboli uchun hissa qo'shib kelmoqda, desak mublag'a bo'lmaydi.

Yiliga 8,1 mlrd. m<sup>3</sup> tovar gazni 134,36 ming tonna barqaror kondensat va 212,9 ming tonna birlamchi xomashyo ishlab chiqaruvchi gazni qayta ishlaydi. Uzlüksiz texnologik jarayon olib borila-

yotgan bu zavodni favqulodda faziyatlar hamda yong'in xavfsizligi bo'yicha qo'riqlash matonatli "LUOK" MChJ obyektlarda Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi Buxoro viloyatidagi

obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan amalga oshirilmoqda.

**M.SHUKRULLAYEV,**  
"LUOK" MChJ Buxoro viloyatidagi OYXTTE bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

**SH.MUSTAQIMOV,**  
bo'lim profilaktika va nazorat bo'linmasi katta inspektori, leytenant.

## BEFARQ BO'LMANG

Biz bilamizki, gazning to'liq yonishi uchun yetarlicha havo kerak bo'ladi. So'rilish bu – yongan gaz mahsulotlarining dudburon, shamollatish tizimlari orqali harakat yo'nalishi bo'yab chiqib ketishi. Gaz to'liq yonmasligi natijasida is gazi ajralib chiqishi va uni xonada to'planib qolishi insoniyat hayotiga xavf soladi. Turli turdagi yonuvchi yoqilg'ilar yordamida isitiladigan pechlardan foydalanishda ularning dudburonlarida issiqlikni ushlab qolish uchun

bir nechta burchak o'matib tashlash yoki dudburon quvrlari o'matilish gradusida yo'l qo'yilgan xatoliklar odamlarni gazdan zaharlanishiga olib kelishi tayin. Bundan tashqari, dudburonlarning, xona ventilyatsiya kanallarini har doim qurum, qush uyalar, tiqilmalardan tozalab turishimiz kerak.

Is gazi har qanday gaz uskunasiidan foydalanganda ajralib chiqadi. Is gazi hidsiz, rangsiz bo'ladi. Katta insonlar uchun 3 marotaba is gazi bi-

lan zararlangan havodan nafas olish zaharlanish uchun yetarli bo'ladi.

Agar gaz uskunalarini joylashgan binoda shamollatish tizimida muammolar bo'lsa, unda asta-sekin is gazi binoda to'planib boradi va inson sog'lig'iga ta'siri insonni o'limigacha olib boradi.

**Vasliddin RAHBAROV,**  
Sirdaryo viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.

## XAVFSIZLIK TALABLARI

FVV Akademiyasi tashabbusi bilan Toshkent shahar FVB hamkorligida Toshkent davlat texnika universiteti professor-o'qituvchilari va talabarlari ishtirokida tadbir o'tkazildi.

Tadbinning nazariy qismini FVV Akademiyasi boshlig'i, dotsent, general-mayor Ravshan Haydarovning "Yong'in xavfsizligi oyligining maqsadi" mavzusidagi, akademiya Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi kafedrasida dotsenti, t.f.n., dotsent Hayot Sharipovning "Yong'inlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari"

mavzusidagi, kafedra professori, k.f.n., professor Rahmat Boltaboyevning "Is gazi va ularning salbiy oqibatlari" mavzusidagi ma'ruzalari tinglandi.

Amaliy qismda Akademiya orkestr guruhining chiqishlari, kursantlarning harbiycha yurish va qurol bilan harakatlanish sinxronikasi, qo'l jangi hamda yong'in o'chirish ama-

liy mashg'ulotlari namoyish etildi. Bundan tashqari Toshkent shahar FVB kuch va vositalari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng, talabalar o'rtasida "Quvnoq estafeta" birinчилиги musobaqasi tashkil etildi. G'oliblar akademiya boshlig'i va kursantlarning sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**S.JUMAYEV,**  
FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i t.f.f.d., dotsent, podpolkovnik.

## SHAHRISABZDAGI HOLAT

Shahrisabz shahar FV bo'limi tomonidan idora va tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida "Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyat(yong'in)lar, "gaz-havo aralashmasining chaqnashi", "Is gazidan zaharlanishning oldini olish" va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida keng qamrovli davra suhbatlari va texnika namoyishlari, turli profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Shahrisabz Davlat pedagogika institutida va Kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filialida hamda Shahrisabz "Temurbeklar maktabi"da ham talaba va o'quvchi yoshlar hamda o'qituvchi, ustozlar o'rtasida mavsum davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida "Ochiq eshiklar" kuni va maxsus texnikalarning namoyishi bo'lib o'tdi.



Shu bilan birgalikda shahardagi qurilish ishlari olib borilayotgan qurilish obektlarida, mavjud bozorlar, tibbiyot va ta'lim muassasalaridagi ishchi xizmatchilar va quruvchilar fuqaro muhofazasi sohasidagi bilimlarini yanada oshirish maqsadida seminarlar va uchrashuvlar o'tkazilib, mavzularga oid eslatmalar va bukletlar tarqatildi.

**U.SHARIPOV,**  
Shahrisabz shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

## AEROPORTDA...

"Uzbekistan airports" AJ obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan "Uzbekistan airports" holding MChJga qarashli ishchi-xizmatchi hamda texnik-xodimlar bilan birgalikda profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Aeroport xodimlarining yong'in xavfsizligi masalalari yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirish, ular-da shaxsiy xavfsizlik madani-

yatini shakllantirish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va boshqa zarur tavsiyalar berildi.

**B.TO'XTAMUROTOV,**  
FVV O'M va TOYOXTTEB AOYOXTTEB inspektori, kapitan.

**R.ARIPOV,**  
kichik inspektor, katta serjant.  
**N.SALIXOV,**  
kichik inspektor, katta serjant.

O'rtachirchiq tumani ixtisoslashtirilgan maktabida qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida amaliy-ko'rgazmali mashg'ulot o'tkazildi.

## MASHG'ULOT

Mashg'ulot davomida o'quvchi-yoshlarga favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinish hamda pirotexnika vositalaridan foydalanmaslik bo'yicha profilaktik tushuntirishlar berildi.

O'quvchilar favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va zilzila yoki yong'in sodir bo'lganda

binoni xavfsiz tark etish, hamda evakuatsiya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdi.

**A.ZOKIROV,**  
O'rtachirchiq tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, leytenant.

**A.XUDAYBERGANOV,**  
bo'lim inspektori, serjant.

## NEFT BAZADA...

Xorazm viloyati FVB tomonidan Urganch neft bazasi MChJda seminar tashkil etildi.

Unda jamiyatga qarashli obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalari, havo-gaz aralashmasining chaqnashi hamda is gazidan zaharlanish bilan bog'liq holatlarning kelib chiqish sabablari xususida so'z yuritildi. Obyekt-da tashkil etilgan yong'in-texnik komissiyalarning faoliyatini samarali tashkil etish borasida belgilangan chora-tadbirlar bilan tanishib chiqildi.

Shuningdek, obyekt xodimlarining favqulodda vaziyat



va yong'inlarda to'g'ri harakat qilish tartibi tushuntirildi. Aholi xonadonlarida ro'y berayotgan yong'inlar, is gazi bilan bog'liq salbiy holatlar va bunday vaziyatlarning oldi olish bo'yicha seminar ishtirokchilarini fikr-mulohazalari tinglandi.

**Mirzojon KURBANOV,**  
Xorazm viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, kapitan.

## AJDODLAR YODI

FVV Akademiyasining "Ma'naviyat va ma'rifat" markazida "Jadidchilik harakati: Milliy istiqloq va ma'rifatparvarlik" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Unda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Ichki ishlar vazirligi faxriysi, iste'fodagi polkovnik, "Do'stlik" ordeni sohibi, taniqli shoir va tarjimon Zikrilla Ne'mat, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti professor-o'qituvchilari, tarix fanlari doktori, professor Avaz Yermetov va tarix fanlari doktori, professor Ravshan Tursunov, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari, Akademiya har-

biy xizmatchilari, xizmatchilari, kursantlar hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.

Anjumanda so'zga chiqqanlar tomonidan jadid bobolarimizning yirik namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari xususida to'xtalib o'tildi.

**Farhodjon XOJAYEV,**  
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi, mayor.



## TUNGI MASHQ

Chust tumani "Sabzazor" MFY hududidagi Chust tibbiyot birlashmasi ma'muriy binosida tungi amaliy mashq o'tkazildi.

Mashq davomida hamkor tashkilotlarning amaliy harakatlari hamda favqulodda vaziyatlar yuz berganda tibbiyot birlashmasining hatti-harakatlari amaliy tekshirib ko'ildi. Mashq davomida birlashma ishchi-xodimlariga

yong'in xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, tibbiyot birlashmasi hududidagi suv manbalari tekshiruvdan o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

**Oybek UMAROV,**  
Chust tumani FV bo'limi  
25-yong'in-qutqaruv qismi boshlig'i,  
katta leytenant.

## TAVSIYALAR BERILDI

Muborak tumani "Konchilar" mahallasidagi barcha ijtimoiy soha va qurilish obyektlarida targ'ibot tadbirlarini samarali tashkil etish yuzasidan yo'riqnoma berildi.

Qolaversa, o'tkazilayotgan tadbirlar davomida tumanning "Yoshlik" mahallasi hududida yangidan bunyod etilayotgan qurilish inshootlari va tibbiyot muassasalarida ham tashkillashtirildi. Mutaxassislar tomonidan ishchi-xizmatchilar o'rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan profilaktik tadbir har tomonlama samarali bo'ldi.

Jarayonda mas'ullar tomonidan fuqarolarga birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va yong'in vaqtida to'g'ri harakatlanish tartiblari o'rgatildi.

Shu kabi tadbirlar Kasbi tumanining bir qator yashash xonadonlari, yangi qurilish obyektlari va ta'lim muassasalarida o'tkazilib, jarayonlarda tadbir ishtirokchilariga tuman favqulodda vaziyatlar va tumangaz uchastkasi



mutaxassislar tomonidan yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid tushunchalar berildi. Is gazidan ehtiyot bo'lish va havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq noxushliklarning oldini olishga qaratilgan eslatmalar tarqatildi.

Nishon FV bo'limi xodimlari tashabbusi bilan tumandagi qariyb 20 ga yaqin ijtimoiy soha obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid profilaktik uchrashuvlar o'tkazilib, fuqarolarga muhim tavsiyalar berildi.

**Azamat HAMRAEV,**  
Mirishkor tumani FV bo'limi boshlig'i.  
**Q.POLVANNAZIROV,**  
Qarshi harbiy prokurori yordamchisi,  
adliya kapitani.

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA

So'nggi vaqtlarda tadbirkorlik subyektlariga tegishli obyektlarda sodir bo'layotgan yong'in va boshqa baxtsiz hodisalarga kelgusida yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, ishlab chiqarish sexlari, savdo va ko'ngilochar markazlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalarida mustahkam yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'in, tabiiy va suyultirilgan gaz bilan bog'liq chaqnash hodisalari va fuqarolarni is gazidan zaharlanish holatlarining oldini olish borasida bir qator profilaktik ogohlantiruv tadbirlari o'tkazilmoqda.

Xususan, o'tgan davr mobaynida 18 marotaba 529 nafar tadbirkorlik subyektlari ishtirokida seminarlar tashkil etilib, tadbirkorlarning qiziqtirgan savollariga, kamchilik va muammolarga yechim topish bo'yicha kerakli tavsiya va amaliy yordamlar berildi.

**Azizbek YARKULOV,**  
Andijon shahar FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, kapitan.  
**Azamjon MAMATOV,**  
bo'lim inspektori, kapitan.

## YO'RIQNOMA

Namangan viloyati Uychi tumanida FVV mas'ul xodimi, tuman FV bo'limi, daxldor tashkilotlar rahbarlari hamda ishchi-xodimlari bilan oylik doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan yo'riqnoma o'tkazildi.

"Oqtosh" mahallasi aholi yashash xonadonlarining yong'iniga qarshi holati o'rganilib, xonadon egalariga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash va is gazidan zaharlanishning oldini olish yuzasidan tushuntirishlar berilib, aniqlangan kamchiliklar o'z o'rnida bartaraf etildi.

27-umumta'lim maktabi hamda 29-maktabgacha ta'lim tashkiloti binolarining yong'iniga qarshi talablarni bajarilishi, binoni isitish qozoni, oshxonasi o'rganilib, aniqlangan kamchi-

liklarni bartaraf etish yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi. Jarayonda maktab o'quvchi-yoshlariga sodir bo'lgan chaqnash, is gazidan zaharlanish va yong'inlar bo'yicha tayyorlangan ijtimoiy rolik namoyish etilib, yoshlarni sohaga oid qiziqtirgan savollariga javob berildi.

**Xayrullo MAVLANOV,**  
Uychi tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, mayor.

Mingbuloq tumani FV bo'limi tomonidan tuman "To'psada" mahallasidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchi-yoshlari bilan "Qutqaruvchi va yoshlar uchrashuvi" tashkil etildi.

## QUTQARUVCHI VA YOSHLAR

Ushbu profilaktik tadbirlarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad kuz-qish mavsumi oldidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, gaz va havo aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kabi favqulodda

vaziyatlarning oldini olish va qish mavsumida maishiy texnikalaridan to'g'ri foydalanish haqida tushuntirish ishlari olib borildi.

**Shodiyor RAHIMOV,**  
Mingbuloq tumani FV bo'limi kichik  
inspektori, kichik serjant.

## KEKSALAR UCHUN

Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tashabbusi bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Farg'ona viloyati kengashi, davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi hamkorligida Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida mehnat qilayotgan 50 nafar ishchi-xodimlarning Samarqand shahriga sayohati uyushtirildi.

Sayohatchilar navqiron Samarqandning qadimiy tarixi va mustaqillik yil-

larida barpo etilgan bunyodkorlik majmualarini, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi va muzeyi, Xoja Doniyor maqbaralarini ziyorat qilishdi.

Shuningdek, ular Registon va Boqiy shahar majmualari, Amir Temur maqbarasi, "Konigi" turizm qishlog'ida bo'lib, katta taassurotlarga ega bo'ldilar.

**Talabjon XOLMATOV,**  
Farg'ona viloyati FVB  
axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

## MAVSUMGA TAYYORGARLIK

Olmazor tumanidagi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p qavatli uylarni qishga tayyorlash bo'yicha organish ishlari amalga oshirildi. 1-sonli muruvvat uyining isitish tizimi o'rganildi qish mavsumini betalafot o'tkazish bo'yicha tayyorgarlik jarayonlari hamda mavjud zaxiralari ko'zdan kechirildi. Unda mas'ul xodimlar bilan

ob-havo keskin sovib ketganda binonalarini energiya tejamligidan foydalangan holda qanday isitish choralarini ko'rilganligi bilan tanishildi.

**Muzaffar MURODOV,**  
Olmazor tumani FV bo'limi inspektori,  
katta leytenant.

## NAZORAT TEKSHIRUVI

Qarshi shahri va tumanida o'tkazilgan tadbirida "G'ofur G'ulom" va "Paxtazor" mahallalarida hamkor xizmatlar bilan birgalikda o'rganish ishlari olib borildi. 400 ga yaqin xonadonlar ko'zdan kechirildi, mavsumda xavfsizlik choralarini ko'rib qo'yish, isitish uskunalariga o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish kerakligi aytilib o'tildi. Gaz xizmati xodimlari gaz qurilmalarida o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida foydalanish kerakligi borasida fuqarolarga tavsiyalar berishdi hamda aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish chorasi ko'rdi.

Shuningdek, mutaxassislar shahardagi bir qator bozor va savdo

komplekslarida bo'lishib, sotuvchi va xaridorlar o'rtasida qish mavsumida xonalarni isitish maqsadida ishlatiladigan yoqilg'i mahsulotlaridan xavfsiz va oqilona foydalanish, is gazidan zaharlanish, yong'in va gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan muhim tavsiya va ma'lumotlarni berishdi.

**H.QOSIMXO'JAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i  
o'rinbosari, mayor.

## XONADONLAR TEKSHIRILDI



Davlatobod tumanidagi "Xalqlar do'stligi", "Gulobod", "Bo'g", "Quy G'irvon" va "Navbahor" mahallasida yashovchi katta yoshdagilar va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalar xonadonlari qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va

boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha o'rganib chiqildi.

O'rganishlar davomida xonadonlarni isitish maqsadida foydalanilayotgan gaz, elektr asbob-anjomlarni sozligi, to'g'ri o'rnatilganligi, isitish pechlarini dudburonlari tozalanganligi atroficha ko'rib chiqilib, kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

**Islomjon MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot  
xizmati yetakchi mutaxassisi.  
**Akmal MUSAYEV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi  
DYON inspektori, katta serjant.



## YONG'INLARNING OLDINI OLAYLIK

**Qashqadaryo viloyati Sho'rtan neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli obyekt ishchi-xizmatchilari bilan nosoz isitish vositalaridan foydalanmaslik, ayniqsa, yaroqsiz pechlar va dudburonlardan foydalanish natijasida is gazidan zaharlanish holatlari sodir bo'layotganligi, yong'inlarni oldini olish borasida suhbatlar o'tkazildi.**

Sexlardagi 10 ta joyda nosoz elektr uskunadan foydalanilganligi uchun 13-band bayoni bilan foydalanish vaqtincha ta'qiqlab quyildi. Yong'indan muhofaza etilayotgan barcha sex va uchastka sektorlarida yong'in xavfsizligi oyligini targ'ib etuvchi bannerlar o'rnatildi. Yong'in xavfsizligi oyligi davomida sexlarda aniqlangan kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida yozma takliflar berildi. Ushbu kamchiliklarga yo'l qo'ygan ma'sul rahbarlarga nisbatan tegishli tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf ettirishga erishildi.

**Sh.UROZOV,**  
Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish  
boshqarmasi OYOXTTEB P va NB  
kichik inspektori, serjant.

## YOSHLARGA OID

O'taliqqa olingan yoshlar bilan ishlash bo'yicha Farg'ona viloyatining barcha shahar va tumanlaridagi FVB xodimlari tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda ulami bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va yod g'oyalardan asrash, terrorizm jinoyatchilik, mayda bezorilik kabi noto'g'ri yo'llarga kirib ketishlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.

**Ahliddin ALIJONOV,**  
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati rahbari,  
kapitan.

## PESHKUDAGI KO'RGAZMA

FVV mas'ul xodimi hamda Buxoro viloyati FVB rahbariyati tomonidan Peshku tumanidagi ta'lim muassasalarining qish mavsumiga tayyorgarlik holati o'rganildi. Shuningdek, "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida o'quvchi-yoshlarni yong'inlarning oldini olish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida ko'rgazmali namoyish tashkil etildi.

**N.BAXRONOV,**  
Peshku tumani FV bo'limi inspektori, kapitan.

## BOSHQARMADA

**Xorazm viloyati FVBda "Ochiq eshiklar kuni" va matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirlarda "Aksilkorupsiya oyligi" doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shaxsiy tarkib tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, korrupsiyaga etaklovchi omillarni barvaqt aniqlash va ularga barham berish, manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablari bo'yicha fikr almashildi.**

Shuningdek, "Yong'in xavfsizligi oyligi"ning maqsad va erishilayotgan natijalari tahlil qilindi. Anjumanda viloyatda sodir bo'layotgan yong'inlarning tahlili, davlat tashkilotlarida, tadbirkorlik subyektlarida yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish yuzasidan o'tkazilayotgan tekshiruvlar bo'yicha so'z yuritildi.

**Mirzojon KURBANOV,**  
Xorazm viloyati FVB bo'lim bosh inspektori,  
kapitan.

## O'QUV MASHQI

Namangan viloyati Davlatobod tumani FV bo'limi yong'in-qutqaruvchilari hamda daxldor tashkilotlar xodimlari bilan tuman hududidagi "Yashil dehqon" bozorida yong'in-qutqaruvchilarining sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni hamda yong'inlarning oldini olish ko'ngilsiz hodisalar yuzaga kelganda to'g'ri va aniq harakat qilish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini o'z vaqtida bartaraf etish borasidagi bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

**Islomjon MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati  
yetakchi mutaxassisi.  
**Avazbek ABDULLAYEV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## SEMINAR

**Andijon viloyati FVB xodimlari tomonidan Andijon shahridagi Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumining o'qituvchi va talabalari ishtirokida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar va is gazidan zaharlanishi gaz va havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan ko'rgazmali seminar o'tkazildi.**

Unda ovqatdan ommaviy zaharlanish bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar, yong'in-qutqaruv otryadi tomonidan asbob-anjomlardan foydalanish, kimyoviy ishlov berish, himoyalashni kostyumlaridan to'g'ri foydalanish, tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish, tabiiy ofatlar, avariya, epidemiologik holatlar, sel-suv toshqinlari sodir bo'lganganda aholiga amaliy yordam ko'rsatish tadbirlari ko'rgazmali tarzda ko'rsatib o'tildi.

**D.ABDUMAJIDOV,**  
Andijon viloyati FVB bo'lim boshlig'i o'rinbosari,  
kapitan.

## XAYRLI ISHLAR

**"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" davlat korxonasi obyektlarida yong'in xavfsizligining ta'minlashni tashkil etish markazi tomonidan qish mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida, qo'riqlanayotgan obektlarda yong'inlarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar va ishchi guruhining buyrug'i ishlab chiqildi.**

"Markaz" KB OYOXTTE bo'limi tomonidan yong'indan muhofaza qilinayotgan obektlarda tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan tezkor shtab va ishchi guruhi tuzilib, bajarilishi nazoratga olingan. "Markaz" KB OYOXTT bo'limi tomonidan muhofaza qilinayotgan obektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida "Markaz" KB OYOXTT bo'limi tomonidan buyruq va amaliy tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Shu asosida qo'riqlanayotgan barcha toifadagi obektlarning yong'in xavfsizligi tekshirilmoqda. Shu bilan birga ularning xavfsizligini ta'minlash borasida soha xodimlari tomonidan olib borilayotgan profilaktik tadbirlarda turli xil ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olishni hamda yong'in va favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakatlanish tartibi bo'yicha tayyorlangan vedeolavhalar ishchi-xizmatchilar etiboriga namoyish etilmoqda.

**Oybek MUSTAFAYEV,**  
markaz kon boshqarmasi (Zarafshon)  
obyektlarida yong'in xavfsizligining ta'minlashni  
tashkil etish bo'limi inspektori, kapitan  
**Abror HAZRATOV,**  
kichik inspektor, oddiy askar.

## EHTIYOT BO'LING!

Farg'ona viloyati bo'yab tunda odamlar qoladigan maskanlarda, bozorlarda, shifoxonalarda tungi profilaktik reyd targ'ibot tadbirlari olib borilmoqda. Tadbirlar davomida ishchi-xodimlarga qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish, elektr jihozlaridan to'g'ri foydalanish, is gazidan zaharlanish, botulizm, gaz va havo aralashmasining chaqnashi kabi salbiy holatlarning oldini olish yuzasidan zaruriy tavsiya va tushunchalar berilmoqda.

**Abduxoshim TOJIBOYEV,**  
Farg'ona viloyati FVB yong'inlar profilaktikasi  
bo'limi bosh inspektori, mayor.

## YONG'INGA QARSHI

Qashqadaryo viloyati Sho'rtan neft gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli obyektlarda yong'in xavfsizligining ta'minlashni tashkil etish bo'limi tarkibidagi 38-yong'in qutqaruv qism shaxsiy tarkibi tomonidan 14 ta yong'inga qarshi suv hovuzlari va 49 ta suv olgich, 28 ta o'rnatilgan lafet dastaklari, 48 ta ichki yong'in o'chirish jumraklari to'liq tekshirildi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan obyekt rahbariga axborot xati kiritildi. Qism boshlig'i va o'rinbosari tomonidan kunduzgi va tungi mashg'ulotlar o'tkazildi. U shaxsiy tarkibning jangovar shayligi hamda oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqti bartaraf etishi tushuntirib o'tildi.

**S.BOBXONOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB Sho'rtan NGQCHB  
OYOXTTEB 38-yong'in qutqaruv qism boshlig'i,  
mayor.

## AHOLI O'RTASIDA

Jizzax viloyati hududida qish mavsumi oldidan yong'inlarning oldini olish hamda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida viloyat FVB va tegishli mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda viloyat hududida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ommaviy ovqatdan zaharlanish kabi holatlarning oldini olish maqsadida, shahar va tumanlarda "Oziq-ovqat mahsulotlaridan ommaviy zaharlanishlar bilan bog'liq kasalliklarning oldini olishda FVDT tegishli xizmatlarining hamkorlikdagi harakati" mavzusida o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Shuningdek, viloyat hududida mavjud korxonalar, tashkilot va muassasalarda malakali mutaxassislar ishtirokida "Yong'in xavfsizligini oldini olish" va "Botulizm – xavfli kasallik" mavzusida seminar va davra suhbatlari tashkil qilinib, o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlar jarayonida mavzuga doir eslatmalar tarqatildi.

**B.MIRZAKOBILOV,**  
Jizzax viloyati FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.  
**Sohib IKMATOV,**  
inspektor, birinchi darajali serjant.

## OYLIK DOIRASIDA

Qashqadaryo viloyati FVB va Shahrisabz tumani bo'limi xodimlari hamkorligida "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida tumanda yangidan barpo etilayotgan obyektlarda quruvchi va mutaxassislar o'rtasida "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash - eng ustuvor vazifa" tamoyili asosida profilaktik targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Unda mutaxassislar yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari bo'yicha o'z tavsiyalarini berdilar.

**S.ATABAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.  
**A.PO'LATOV,**  
Shahrisabz tumani FV bo'limi boshlig'i, kapitan.



Andijon viloyati FVB tomonidan "Aksikorrupsiya oyligi" doirasida jurnalist, bloger hamda korxon va tashkilot axborot xizmati xodimlari uchun matbuot anjumani va "Ochiq eshiklar" kuni o'tkazildi.

## ANDIJONDAGI VOQEA



Tadbir soha faoliyati ko'lami, undagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, qish mavsumida favqulodda vaziyatlarning oldini olish chora-tadbirlari, shuningdek, faoliyatining ochiqlikini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida OAV vakillariga ma'lumotlar berildi. Tadbir ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutasaddilardan atroflicha javob oldilar.

Anjuman so'nggida ishtirokchilar uchun FVV tizimida foydalanib kelinayotgan yong'in-qutqaruv texnikalari hamda asbob-anjomlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

**Hayotbek RAHIMOV,**  
Andijon viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i.

## TEXNIKALAR NAMOIYISHI

"Urganch xalqaro aeroporti" MChJda viloyat FVB xodimlari tomonidan aeroport ishchi-xizmatchilari yong'in xavfsizligi sohasida nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash maqsadida, yong'in o'chirish texnikalari va asbob-anjomlari namoyishi o'tkazildi.

Tadbir ishchi-xizmatchilarga yurtimizda sodir bo'layotgan yong'inlar, ularning salbiy oqibatlari, is gazi va uning oqibatida sodir bo'layotgan noxush holatlar hamda ularning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Tadbir davomida aerodrom yong'in o'chirish avtomobillari, asbob-anjomlari va yong'in-qutqaruvchisining jangovar bosh kiyimlari bo'yicha ma'lumot berib o'tildi hamda yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha ham amaliy ko'rsatib berildi.

**S.TOREMURATOV,**  
Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.  
**I.MATYAKUBOV,**  
boshqarma bo'lim inspektori, katta leytenant.

## O'QUVCHILAR BILAN...

Olmazor tumanidagi TDTUga qarashli akademik litsey o'qituvchilari va o'quvchilari bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi profilaktikasi otkazildi.

Unda bo'lim boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik N.Xatamov hamda qutqaruvchi xodimlari tomonidan akademik litsey rahbariyati, o'qituvchilar, ishchi-xizmatchilar hamda talabalar ishtirokida kuz-qish mavsumini talafotlarsiz o'tkazish, talabalarni xavfsiz binolarga qabul qilish, yotoqxonaning yashash sharoitlarini yaxshilash, is gazidan zaharlanishning oldini olish, gaz-havo aralashmasi chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning kelib chiqishiga yo'l qoymaslik bo'yicha tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

**Javohir MIRZOYEV,**  
Olmazor tumani FV bo'limi bo'linma inspektori, katta leytenant.

## SHOVOTDAGI BANNERLAR

"Yong'in xavfsizligi oyligi" tadbiriga Shovot tumani misolida qaraydigan bo'lsak, aynan ushbu oylikka bag'ishlangan video va foto hamda eslatma materiallar tayyorlanib, 186 ta davlat tasarrufidagi obyektlarda, 154 ta tadbirkorlik subyektlarida hamda 7000 mingdan ziyod aholi turar joylarida profilaktik tushuntirish tadbirlari jadal ravishda amalga oshirildi. Shuningdek, tumanning odamlar ko'p yig'iladigan 3 ta joyga bannerlar joylashtirildi.

**D.POLVANOV,**  
Shovot tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

## TUSHUNTIRILDI

Buxoro viloyati FVB "Ko'kdumaloq" MCHJ "Janubiy kemachi" obyektida "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida obyekt yong'in xavfsizligini ta'minlash, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha yong'in o'chirish asbob-anjomlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

Obyekt ishchi-xodimlariga yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha eslatmalar tarqatildi.

**Yo'ldosh RAVSHANOV,**  
Buxoro viloyati FVB "Ko'kdumaloq" MCHJ  
SKS "Janubiy kemachi" katta inspektori, mayor.

## DAVRA SUHBATI

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi tarmoqlar va podstansiyalar sexining ishchi-xodimlari bilan yong'inlarning oldini olishga bag'ishlangan uchrashuv, davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda respublikamizda sodir bo'layotgan yong'inlar va ularning oqibatlari to'g'risida tushuntirishlar olib borildi.

Shu bilan birga respublikamiz hududlarida is gazidan zaharlanish holatlari bo'yicha sodir bo'layotgan mudhish hodisalar va ularning ayanchli oqibatlari yig'ilganlar e'tiboriga misollar tariqasida yetkazilmoqda. Ishchi-xizmatchilar bilan o'tkazilgan uchrashuv va davra suhbatlari savol-javoblarga boy bo'lib, unda korxon ishchilarining barcha savollariga soha xodimlari tomonidan javob berildi.

**Akmal HAKIMOV,**  
"NKMK" va "Navoiyuran" davlat korxonasida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi inspektori kapitan.  
**Kamol YO'LDOSEV,**  
NKMK AJ o'chov asboblari va avtomatikasi markaziy laboratoriyasi sanoat xavfsizligi muhandisi.

## HARBIY QISMDA

Sharof Rashidov tumani FV bo'limi tomonidan Jizzax harbiy prokuraturasi, Jizzax garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi va harbiy qism qo'mondonligi bilan hamkorlikda tumandagi harbiy qismda nazariy hamda ko'rgazmali tadbir o'tkazildi. Unda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etib, bu borada bilim va ko'nikmalarini mustahkamladi.

Tadbir mutaxassislar tomonidan ishtirokchilarga harbiy qism hududi va binolarida, yashash xonadonlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga ro'ya qilish, is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda gaz va elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish bo'yicha atroflicha ma'lumot berildi.

Shuningdek, tadbir davomida harbiy xizmatchilarga soha mutaxassislari tomonidan katta va o'ziga xos yong'inlarni o'chirish, turli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda foydalaniladigan zamonaviy yong'in-qutqaruv texnikasi va anjomlari namoyish etilib, ko'rgazmali chiqishlar namoyish qilindi.

**Ifthor UMAROV,**  
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati rahbari, kapitan.

## MASHG'ULOT

Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyida ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, so'z va e'tiqod erkinligi, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqlari, davlatning internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha yangilangan Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgarishlarning mazmun-mohiyati to'g'risida fikr yuritildi.

Shuningdek, litseyda "Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi" shiori ostida turkum tadbirlar tashkil etildi. "Konstitutsiya bilimdoni" mavzusida "Zakovat" intellektual o'yini, "Mening Konstitutsiyam 32 yoshda" mavzusida davra suhbat, "Konstitutsiya - kelajagimiz mash'ali" mavzusida diktantlar tanlovi va HAL shaxsiy tarkibi bilan o'tkazilgan turli sport musobaqalari tashkil etildi.

**Zafarjon TO'RAYEV,**  
Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" HAL direktori.



## Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

*Bosh muharrir*  
**Azamat SUYUNOV**

*Gazeta tahririyat*  
kompyuterxonasida  
sahifalandi.

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti - 15.00  
Topshirildi - 15.00

*Navbatchi:*  
**A.QOBILOV**

*Sahifalovchi:*  
**B.SALOHIDDINOV**

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007 yil  
3 yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
yakka obunachilar va  
tashkilotlar uchun - 382

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-1252  
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.  
Adadi - 9300 nusxa